



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI MINISTRY OF JUSTICE OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

100000, Toshkent shahri, Sayilgoh ko'chasi, 5-uy, tel.: (998 71) 207 04 43,
www.minjust.uz, el. pochta: info@adliya.uz, minjust@exat.uz



2026-yil 10-mart 14/10-6/3986-son

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan
va innovatsiyalar vazirligi

2026-yil 23-fevraldagi
02/23-1028-son xatga

Adliya vazirligi tomonidan ayrim normativ-huquqiy hujjatlarga tushuntirish berishni so‘rab yo‘llagan xatingiz ko‘rib chiqildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi PQ–3666-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq xatingizda nazarda tutilgan masalalar yuzasidan tushuntirish berish vazirlik vakolatiga kirmaydi.

“Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta’minlash to‘g‘risida”gi Qonunning 21-moddasida jismoniy va yuridik shaxslarning so‘roviga ko‘ra davlat organlari va tashkilotlar o‘z faoliyatiga taalluqli normativ-huquqiy hujjatlarning qo‘llanilish tartibini tushuntirishi belgilangan.

Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 7-noyabrdagi 706-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi to‘g‘risidagi nizomning 11-bandiga ko‘ra, o‘z vakolatlari doirasida **yuridik va jismoniy shaxslarga** mehnat va mehnatni muhofaza qilish qonunchiligini qo‘llash masalalari bo‘yicha tushuntirishlar berish Vazirlikning asosiy vazifa va funksiyalaridan hisoblanadi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-martdagi PQ–2847-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi to‘g‘risidagi nizomda budget tizimidagi budget mablag‘laridan maqsadli hamda oqilona foydalanish ustidan davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirish Moliya vazirligining (hozirda Iqtisodiyot va moliya vazirligi) asosiy vazifalaridan biri ekanligi ko‘rsatilgan.

Yuqoridagilarga asosan, xatingizda ko‘rsatilgan masalalar yuzasidan **Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi** hamda **Iqtisodiyot va moliya vazirligining** fikrini olishingiz maqsadga muvofiq.

Axborot tariqasida ma’lum qilinadiki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi PQ–5177-son “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorining 1-bandiga asosan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, **davlat muassasalari**, davlat ulushi

50 foiz va undan ortiq bo'lgan tashkilotlarda (keyingi o'rinlarda – davlat organlari va tashkilotlari) ishga qabul qilishni ochiq tanlov asosida amalga oshirish hamda tanlov doirasida o'tkaziladigan sinov tadbirlarini Internet tarmog'i orqali real vaqt rejimida kuzatishni nazarda tutuvchi tartib joriy etilishi belgilangan.

Mazkur qarorning 3-bandida barcha **davlat organlari va tashkilotlari**, shu jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklarida hamda ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan xo'jalik jamiyatlarida mavjud shtat birliklari doirasida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalari faoliyatini yo'lga qo'yish ko'rsatilgan.

Ushbu Qarorning 4-bandida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari rahbarlari davlat organlari va tashkilotlari tomonidan **Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi** bilan birgalikda o'tkaziladigan ochiq tanlov asosida ishga qabul qilinadi, ularni lavozimidan ozod etish masalasi Agentlik bilan kelishilishi nazarda tutilgan.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktorining 2021-yil 6-sentabrdagi 27-son buyrug'i bilan tasdiqlangan Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati to'g'risidagi namunaviy nizomning (ro'yxat raqami 3319, 2021-yil 8-sentabr) 1-bandida ushbu Namunaviy nizomda **davlat organlariva tashkilotlari** deganda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, **davlat muassasalari**, davlat ulushi 50 foizdan yuqori tashkilotlar tushunilishi ko'zda tutilgan.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-dekabrdagi PF-270-son "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi Farmonining 4-bandiga muvofiq korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalarining **rahbar va xodimlari** faoliyatiga samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) **qo'llanilmaydi**, bunda, samaradorlik ko'rsatkichlaridan (KPI) kelib chiqadigan **ustamalar** tegishli lavozim uchun belgilangan **maksimal miqdorda** tatbiq etilishi, **ustamalar miqdorini** pasaytirish masalasi **Agentlik** roziligi bilan hal etilishi, korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalarining xodimlarini **intizomiy javobgarlikka tortish Agentlik** bilan **kelishilgan** holda amalga oshirilishi hamda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalari xodimlari davlat organlari va tashkilotlarining o'z mablag'lari hisobidan Agentlik tomonidan tasdiqlanadigan reja-jadvalga asosan maxsus o'quv kurslarida o'qitilishi belgilangan.

Vazir o'rinbosari



N. Muxammadiyev